

## UMUM TA'LIM MAKTAB ONA TILI DARSLIKLARIDAGI IBORALAR MAVZUSINING O'QITILISHIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

---

*Hayitmurodova Marjona.*

*Samarqand Davlat Unversiteti Kattaqo'rg'on filiali*

*Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:*

*o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Anvar Sobirov Quvondiqovich*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umum ta'lim maktablari darsliklarida kiritilgan iboralar mavzusi o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik metodlar va ularning mavzu mohiyatini ochib berishidagi o'rni haqida mushohada yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, klaster metodi, suhbat metodi, frazema, kakografiya, analiz-sintez metodi.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Ushbu metodni aynan "Iboralar" mavzusida qo'llasak o'quvchiga tushunarli bo'ladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. "Suhbat" metodi o'qituvchidan "Iboralar" mavzusining xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf

o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi.

Ona tili darsligidagi "Iboralar" mavzusining o'rganilishi bo'yicha "Iboralarning turlari" mavzusidagi interfaol "Klaster" metodini quyidagicha shakllantirish mumkin. Bu metod darsning chaqiruv pog'onasida

INSERT JADVALI			
V	+	-	?

o'quvchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratish va darsga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida qo'llanadi. O'tilgan mavzularni takrorlash va esga olishda klaster metodidan foydalanilsa samarali natija beradi. Bu metodni mantiqiy ketma-ketlikda, mantiqiy tizimlashgan holda bog'lab ketishi kerak. Mavzuni "Insert jadval" metodi asosida o'rganish va mustahkamlah ham maqsadga muvofiq. Bu metod mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.

Xususan, "Iboralarning turlari" mavzusini berilgan jadval bo'yicha o'quvchilar olgan bilimlari asosida mustahkamlash mumkin!

**(V)- bilaman**

**(+)- yangi axborot**

**(-) – to'g'ri kelmadi**

**( ? )- tushunmadim**

Tilning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so'rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat kabi turli tuman metodlar paydo bo'ldi . Shunday usullardan biri kakografiyadir.Kakografiya so'zi lotincha kakos-xunuk, yomon yozmoq. Muayyan maqsadni ko'zlab xatoliklarga yo'l qo'yilgan matnni tuzattirish orqali o'quvchilarga imloni o'rgatish usuli sanaladi. Bu metodni "Iboralar" mavzusida ham qo'llasa bo'ladi.Bunda iboralar va so'z birikmasini farqlashda asosiy metod vazifasini o'taydi. .Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga

asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nafaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi.

“Iboralar” mavzusini o'rganishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish mumkin. Bu metod barcha o'quvchilarni darsga jalb etadi, munozara olib borish madaniyati shakllanadi eng asosiysi mavzuga qiziqish uyg'onadi. Bunda sinf o'quvchilarini 4 guruhga bo'lib, har biri guruh sardorlari mavzu yuzasidan savollarga javob berishlari kerak bo'ladi.

Analiz-sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish

o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi. Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida - ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi barcha metodlarning “Iboralar” mavzusida qo'llanilishidagi muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.Qosimova, Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish, T.: 1964.
2. G'afforov Ya. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent, 2021. 156-bet
3. Tadjibayeva D.Sh. “5-sinf ona tili darslarining adabiyot fani bilan o'zaro integratsiyasi”. // Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: Muammo va yechimlar. Xalqaro amaliy konfrensiya. Andijon, 2020. 136-139-betlar.
4. Ro'ziyev D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013. 146-b.